

Uzbekistan Airways bilan Batumiga sayohat qiling

2024 1 Fevral

Gamarjoba, Batumi! Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Toshkentdan Gruziyaning sohilbo‘yi shahriga mavsumiy aviaqatnovlarni tiklamoqda. Hoziroq aviachiptalarni sotib oling va o‘zingizga qiziqarli sayohatni hadya eting.

Bu yozda biz sizni Gruziyani kashf qilishga va boshqa olamga olib boradigan jozibali plyajlari, ziravorlarga boy taomlari va tarixiy joylari bilan boy bo‘lgan maftunkor dengiz bo‘yidagi shahar – Batumiga borishni taklif qilamiz.

Batumining mahalliy aholisi uni nimaga qiyoslashini bilasizmi? Yangi tayyorlangan sharobga. Bu shahar sokin, betashvish, maftunkor, xushbo‘y va o‘zining go‘zalligi bilan hayratga soladi. Yoqimli quyosh nurlari va iliq dengiz bu yerga har yili minglab sayyoohlarni jalb qiladi. Uzbekistan Airways bilan siz ham sayyoohlardan biriga aylanishingiz mumkin.

29-maydan boshlab aviakompaniya yana Toshkent – Batumi – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha mavsumiy parvozlarni amalga oshira boshlaydi. Gruzin kurortiga aviaqatnovlar haftasiga ikki marta, chorshanba va shanba kunlari quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

- Toshkentdan jo‘nab ketish Toshkent vaqt bilan soat 10:10 da;
- Batumiga yetib kelish Batumi vaqt bilan soat 12:55 da;
- Batumidan jo‘nab ketish Batumi vaqt bilan 14:25 da;
- Toshkentga yetib kelish Toshkent vaqt bilan soat 18:40 da.

Eslatib o‘tamiz, Uzbekistan Airways Toshkentdan Tbilisiga seshanba va juma kunlari ham muntazam aviaqatnovlarni amalga oshiradi. Gruziyaga bir marta tashrif buyurganingizdan so‘ng, siz bu mamlakatning mehmondo‘sligini uzoq vaqt eslab yurasiz.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com saytidan 3% chegirma bilan, Uzbekistan Airways mobil ilovasida, aviakompaniya agentlaridan va Uzbekistan Airways Sales filialining Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko‘chasi, 9-uyda joylashgan yangi manzilida xarid qiling.

